



## SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

# SURXONDARYO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI


2021- YIL YANVAR-NOYABR  
(DASTLABKI MA'LUMOT)




## Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2021- yil yanvar-noyabr oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida Viloyat korxonalarini tomonidan 5 trln. 836,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 109,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 89,8 % ni tashkil etdi.




### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da



\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 26,2 % ga hamda ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 16,0 % ga o'sishi kuzatildi.

### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 182,0 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,1 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da



Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-noyabr	2021- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Koʻmir, ming t.	241,6	253,8	12,2
Neft, ming t.	72,9	78,4	5,5




Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-noyabr	2021- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Qattiq tuz, ming t.	21,6	23,9	2,3
Chaqiq tosh, ming t.	96,8	75,7	-21,1

Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so'm

Yanvar - noyabr

FHI,% da



2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5 trln. 240,6 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 89,8 % ini tashkil etdi.


2020-yil yanvar-noyabr

88,2%

2021-yil yanvar-noyabr





89,8%



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida – 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 0,5 % (0,4 %), o'rta-quyi texnologiyali – 23,4 % (19,7 %) va quyi texnologiyalisi – 65,7 % (67,8 %)ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 7,2 % (2020- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 166,7 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 1,9 % (2020- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 84,2 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 45,6 % (2020- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 114,7 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 23,8 % (2020- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 104,9 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 1,1 % (2020- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 192,1 %)ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati**  
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da






2021- yilning yanvar-noyabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 16,7 ming tonna paxta tolasi (2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 29,7 % ga kamaygan), 42,1 ming tonna kalava ip (31,5 % ga oshgan), 57,1 ming tonna neft bitumi (11,5 %), 22,8 ming tonna boshqa guruhlariga kiritilmagan suyuq neft yoqilg'isi (mazut) (2,5 m.) hamda 37,2 ming tonna paxta chigiti (20,8 % ga kamaygan) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-noyabr	2021- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming t.	23,8	16,7	-7,1
Kalava ip, ming t.	32,0	42,1	10,1
Boshqa guruhlariga kiritilmagan suyuq neft yoqilg'isi (mazut), ming t.	9,1	22,8	13,7
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	122,6	106,9	-15,7
Aroq, ming l.	903,2	413,7	-489,5
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	7,0	3,1	-3,9

### Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 1,3 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 213,3 % tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 1,9 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 15,8 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 99,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 8,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 157,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 8,5 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 9,1 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 445,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 28,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 77,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 23,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 6,4 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 1213,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.






### Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 73,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 73,9 % ni va ishlab chiqarish hajmi 35,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 37,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 148,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 39,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 12,7 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 2077,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Kiyim ishlab chiqarish sanoati


2020- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 6,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 107,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,9 %, fizik hajm indeksi 123,1 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 311,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2020- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 80,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni, fizik hajm indeksi 160,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 26,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish




2020- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 7,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 79,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 8,0 % ni, fizik hajm indeksi 100,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 416,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2020- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 63,9 % ga oshgan.


Shuningdek, 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni, fizik hajm indeksi 215,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 31,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 327,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,6 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 135,6 % ga oshganligi kuzatildi.




**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-noyabr	2021- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	80,0	175,2	95,2
Issiqlik energiyasi, ming gkal	30,8	33,1	2,3

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 86,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,5 % ini) tashkil etdi.


**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-noyabr	2021- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	3,4	4,2	0,8
Boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	19,6	22,0	2,4

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 71,9 % ga, oqova suvlarini yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 24,1 % ga shuningdek, boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar 12,1 % ga oshganligi kuzatildi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2 trln. 176,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 115,7 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 37,3 % ni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari

2020-yil  
yanvar-noyabr

53,1%

2021-yil  
yanvar-noyabr

48,5%

### Nooziq-ovqat mahsulotlar

2020-yil  
yanvar-noyabr

46,9%

2021-yil  
yanvar-noyabr




51,5%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 2,0 % (2020- yil yanvar-noyabr oylarida 3,5 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Termiz shahriga to'g'ri kelib 19,5 % ni, Denov tumani 14,6 % ni, Sho'rchi tumani 14,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida Viloyat o'sish sur'ati (115,7 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Muzrabot (169,0 %), Bandixon (167,1 %), Jarqo'rg'on (140,3 %), Uzun (142,8 %), Sariosiyo (134,8 %), Sho'rchi (127,7 %), Angor (127,3 %) hamda Qiziriq (119,7 %) tumanlarida qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

*Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Termiz shahriga to'g'ri kelib 19,5 % shuningdek, Denov tumanida 14,6 %, Sho'rchi tumanida 14,4 % ni tashkil etdi.*



o'sish sur'ati  
mlrd. so'm



Surxondaryo Viloyatsi hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining Viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Termiz shahriga to'g'ri kelib 19,5 % ni, shuningdek, Jarqo'rg'on tumani 15,2 % ni, Sariosiyo tumani esa 11,0 % ni tashkil etdi.

Surxondaryo Viloyati

2019- yil

3 444,4 mlrd. so'm

2020- yil

4 429,2 mlrd. so'm

2021- yil

5 836,2 mlrd. so'm



2019- yil


108,2 %

2020- yil

108,2 %

2021- yil

109,5 %




FHI, % da

mlrd. so'm

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Termiz shahri (6 133,8 ming so'm), Jarqo'rg'on (3 968,7 so'm), Termiz (3 408,8 ming so'm), Sariosiyo (2 982,1 ming so'm), Sherobod (2 519,2 ming so'm) hamda Sho'rchi (2 254,7 ming so'm) tumanlarida o'rtacha Viloyat darajasi ko'rsatkichidan (2 158,8 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



Surxondaryo Viloyati

2019- yil

1 329,3 ming so'm

2020- yil

1 672,6 ming so'm

2021- yil

2 158,8 ming so'm



01

2019- yil

105,9 %

02

2020- yil

105,9 %

03

2021- yil

107,2 %



**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 805,1 ming so'm bo'lgani holda, Termiz shahrida – 2 295,3 ming so'mni, Sho'rchi tumanida – 1 460,2 ming so'mni, Termiz tumanida – 1 392,0 ming so'mni va Jarqo'rg'on tumanida – 830,1 ming so'mni tashkil etdi.

**Surxondaryo Viloyati**

2019- yil

651,2 ming so'm

2020- yil

710,2 ming so'm

2021- yil

805,1 ming so'm



2019- yil


120,3 %

2020- yil

102,7 %

2021- yil

113,4 %




*o'sish sur'ati*

*ming so'm*

## Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda Viloyatda 4 675 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 866 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 18,5 % i) Termiz shahriga, 547 tasi (11,7 %) Denov tumaniga, 353 tasi (7,6 %) Sho'rchi tumaniga, 299 tasi (6,4 %) Termiz tumaniga va 295 tasi (6,3 %) Sariosiyo tumaniga to'g'ri kelmoqda.



## Jami yangi tashkil etilgan

2019- yil

1 711 dona

2020- yil

1 711 dona

2021- yil

1 092 dona



## Jami faoliyat yuritayotgan

2019- yil

4 013 dona

2020- yil

4 014 dona

2021- yil

4 675 dona